

Huquqiy bilimlarini oshirishga hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan seminar o'tkazildi

Joriy yilning 12-iyun kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasida tizim xodimlari uchun qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini etkazish maqsadida seminar o'tkazildi.

Seminar yoshlarning sun'iy intellekt texnologiyalariga qiziqishini yanada oshirish va ularni rag'batlantirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun "Sun'iy intellekt yo'nalishida eng yaxshi startap" (President ai award) tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi 2026-yil 5-iyun 288-sonli qarorining mazmun-mohiyati haqida ma'lumotlar berib o'tildi.

Seminar davomida Milliy statistika qo'mitasining Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat bo'limi boshlig'i V.To'xtayev tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini oshirish, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, davlat xaridlari sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi holati yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasida o'tkazilgan o'rganish natijalari haqida aytib o'tildi.

Shuningdek, davlat organlari, tashkilotlar va mansabdor shaxslar faoliyatida halollik, xolislik, ochiqlik hamda adolat tamoyillarini ta'minlash maqsadidan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyun kungi O'RQ-931-sonli "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni haqida tushuntirildi.

Ishtirokchilar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar tinglanib, ularni qiziqtirgan savollarga batafsil javoblar berildi.



